

# NEFT MAHSULOTLARINI TO'G'RIDAN-TO'G'RI SOTISH TO'G'RISIDA

10 - sonli SHARTNOMA

SHaxrisabz sh.

2022 y. "13" yanvar

Keyingi o'rinnlarda "Sotuvchi" deb ataluvchi "Qarshi neft bazasi" mas'uliyati cheklangan jamiyatni nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktor O.Ruziev bir tomonidan va "Iste'molchi" deb ataluvchi nomidan ikkinchi asosida ish yurituvchi Mutalov SH.A. tomonidan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

## 1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. «Sotuvchi» «Iste'molchi»ning buyurtmasi asosida tegishli rusum va miqdordagi neft mahsulotlarini etkazib berish, «Iste'molchi» esa etkazib berilgan neft mahsulotlarini qabul qilib olish va haqini to'lash majburiyatlarini ushbu shartnomada kelishilgan shartlarda bajarishni o'z zimmalariga oladilar.

1.2. Tomonlar o'zaro kelishilgan holda ma'lum davr (oylik, choraklik yoki yillik davr) uchun etkazib berilishi ko'zda tutilgan neft mahsulotlari turlari, assortimentlari va miqdorlarini ushbu shartnomaning 1-ilovasidagi spetsifikatsiya orqali belgilab oladilar.

Spetsifikatsiya ma'lumotlaridan tomonlar o'z shartnomaviy majburiyatlarini bajarishda, jumladan «Iste'molchi» buyurtmalarini shakllantirishda, «Sotuvchi» esa neft mahsulotlarining zarur zahirasini oldindan yaratishni rejalashtirishda foydalaniладilar.

## 2. NEFT MAHSULOTLARI NARXLARI VA HISOB – KITOBI TARTIBI

	taxminiy	umumiyl	summasi
2.1. SHartnomaning			
<u>5127518,5/Besh million binyuz yigizma yetimil n besh yuz uksatish</u>	so'mni tashkil qiladi.		
2.2. Etkazib beriladigan neft mahsulotlarining narxlari «Sotuvchi» tomonidan ularni neftni qayta ishlash zavodlaridan birja savdolari orqali sotib olish va tashib keltirish xarajatlari hamda sotish bo'yicha neft baza ustamasidan (avtobenzin va dizel yonilg'isi bo'yicha yakuniy iste'molchiga sotilganda to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'i hisobga olinmag'lu holda) shakllanadi.			
2.3. «Sotuvchi» «Iste'molchi»ning buyurtmasi olingen zahoti etkazib berilishi so'rangan neft mahsulotlarining o'sha kundagi joriy narxlari unga ma'lum qiladi. «Iste'molchi» mazkur narxlari asosida buyurtmadagi neft mahsulotlari partiyasining tegishli hajmi uchun 100 foiz oldindan to'lovlarni 5 kun ichida amalga oshiradi. Aks holda «Sotuvchi» neft mahsulotlari uchun yangi joriy narxlarni qo'llashi mumkin.			
2.4. Etkazib beriladigan neft mahsulotlari uchun to'lovlardan «Sotuvchi»ning bankdag'i hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.			

## 3. ETKAZIB BERISH TARTIBI VA MUDDATLARI

3.1. Neft mahsulotlari «Sotuvchi»ning ombordan yoki unga qarashli yoqilg'i quyush shaxobchalaridan «Iste'molchi»ning buyurtmasi va unda etkazilishi so'rangan neft mahsulotlari uchun to'lovlardan kelishilgan muddatda oldindan 100% amalga oshirganligini tasdiqlovchi to'lov hujjati nusxasi taqdim etilganda etkazib beriladi.

3.2. Neft mahsulotlari «Iste'molchi»ga «Sotuvchi»ning maxsus avtovozida belgilangan tartibi ya'ni avtovoz xizmati xaqqa evaziga etkazib beriladi. Neft maxsulotlarini shuningdek «Iste'molchi» tomonidan barcha yong'in va texnika xavfsizlik talablariga rivoja qilish bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga oлgan holda o'ziga tegishli yoki ijaraga olingen maxsus transport vositasida olib ketilishi mumkin va bunday holatda tashish harajatlari qayta ko'rib chiqilmaydi.

3.3. Neft mahsulotlari omboriga neft mahsulotini tashuvchi avtomobil sisternalari 1510-84 Davlat standarti talabiga javob berishi shart. Aks holda avtovoz vositalari omor hududiga kiritilmaydi va ularga neft mahsulotlarining quyilishiga ruxsat etilmaydi. Bunday avtovoz vositalarining bo'sh ketishi uchun «Sotuvchi» javobgar bo'lmaydi.

3.4. Neft mahsulotlari qo'yilgan avtotsisternalar (Iste'molchining avtovozida olib ketish xolatlari bundan mustasno) «Iste'molchi»ning talabiga binoan «Sotuvchi»ning yoki uning bo'linmalari tomonidan amaldagi me'yoriy texnik hujjatlarga (2517-2012 davlat standartiga) mos tarzda tamg'alanadi.

3.5. Neft mahsulotlari ushbu shartnomaning 3.1. bandida keltirilgan hujjatlarni taqdim etilgan kundan boshlab 2 kun ichida etkazib beriladi. Neftni qayta ishlash zavodlaridan etkazib berilmasligi yoki temir yo'l tashkilotlarining aybi bilan yuzaga kelgan neft mahsulotlari ta'minotidagi uzilish holatlarida «Sotuvchi» tomonidan «Iste'molchi»ni bu haqda habardor qilingan holda tomonlar etkazib berishning boshqa muddatini o'zaro kelishib olishlari mumkin.

## 4. NEFT MAXSULOTLARINI QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Neft mahsulotlari miqdor buyicha qabul qilish "Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini miqdor jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-6-tonli va sifati bo'yicha esa "Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini sifat jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-7-tonli yurijnomalar xamda boshqa me'yoriy xujjalr talablarini asosida amalga oshiriladi.

4.2. «Iste'molchi»ning vakili neft mahsulotlarini olayotgan vaqtida mahsulotning sifati va miqdorini joyid tekshirib oladi.

4.3. Neft mahsulotlarini etkazib bergenlik to'g'risidagi tegishli hujjatlari «Sotuvchi»ning omborida yoki unga qarashli AYOQSHda, ayrim hollarda «Iste'molchi»ning hududida rasmiylashtiriladi va ularni «Iste'molchi» tomonidan bunga vakolat berilgan ishonchnomaga asosida vakili imzolaydi va neft mahsulotlarini qabul qilib oladi. Egalik xuquqi, tasodifiy nobud bo'lishi, neft maxsulotlariga ziyon etish xavfi «Sotuvchi» ombori yoki AYOQSH xududidan chiqqan vaqtidan boshlab «Iste'molchi»ga o'tadi.

## 5. NEFT MAHSULOTLARINING SIFATI

5.1. «Sotuvchi» «Iste'molchi»ga sifati Davlat standartlariga va texnik shartlarga javob beradigan neft mahsulotlarini etkazib berishni kafolatlaydi. Etkazib beriladigan neft mahsulotlarining sifati 1510 va 2517-sod Davlat standartlari va texnik shartlarga mos bo'lishi hamda bu neft mahsulotlarini avtotransport vositalariga yuklash va tashib etkazilishi kuzatilishiga oid rasmiylashtirilgan xujjatlarda qayd etilishi lozim.

5.2. Neft mahsulotlarini olishda «Iste'molchi» ularning sifatini, shuningdek sifat pasportini talab qilish xuquqiga ega.

## 6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksiga va «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuniga binoan javobgar bo'ladi.

6.2. «Sotuvchi» neft mahsulotlarini o'z vaqtida etkazib bermaganlik uchun har bir kechiktirilgan kun uchun vaqtida etkazilmagan neft mahsulotlari summasining 0,1 foizi, lekin 10 foizidan ortiq bo'limgan miqdorda penya to'laydi.

6.3. «Sotuvchi» neft mahsulotlari sifatini o'z hisobidan tiklab berish bilan bir qatorda «Iste'molchi»ga etkazib berilgan sifati lozim darajada bo'limgan neft mahsuloti qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.4. «Iste'molchi» belgilangan muddatda olinmagan va etkazib berilgan neft mahsulotlarini olishdan sababsiz bosh tortganligi uchun «Sotuvchi»ga olinmagan mahsulot umumiy qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi va ta'minotchi olinmagan mahsulot uchun mahsulotning to'liq qiymatini undirish xuquqiga ega.

6.5. «Iste'molchi» o'zining xududiga olib kelingan neft maxsulotlarining qabul qilishda amaldagi yong'in va texnik xavfsizligi talab va me'yordi to'liq amal qilinishiga to'liq javobgardir.

6.6. «Iste'molchi» etkazib berilgan neft mahsulotlarini saqlashning texnikaviy shart-sharoitlari va xavfsizligi uchun amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan tartibda javob beradi.

## 7. FORS-MAJOR XOLATLAR

7.1. Tomonlardan birortasi ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan va bunga fors-major holatlar, ya'ni engib bo'lmaydigan kuch (favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar)) sabab bo'lganligini isbotlasa, javobgar bo'lmaydi.

## 8. BOSHQA SHARTLAR

8.1. Ushbu shartnomaning bajarilishida yuzaga keladigan xar qanday nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida o'zarlo muzokara yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda esa nizolar belgilangan tartibda iqtisodiy sudlar orqali hal etiladi.

8.2. SHartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda bo'lib, har ikkala tomon imzolagandan keyingina haqiqiy hisoblanadi.

8.3. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzildi va teng xuquqiy kuchga ega.

8.4. SHartnomaga tomonlar o'rtasida imzolangan va agar «Iste'molchi» byudjet tashkiloti bo'lsa, bunga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining xududi g'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgan kundan kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

## 9. Neft mahsulotlarini etkazib berish tafsilotlari

Neft mahsulotining nomi, rusumi	O'icho v bir- ligi	Narxi	Yillik miqdori	Summasi	SHu jumladan choraklar bo'yicha			
					I	II	III	IV
Avtobenzin	TH	10909614		5127518,5	0,47			
Dizel yoqilg'isi								

## 10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

**“SOTUVCHI”**

**“Qarshi neft bazasi” MCHJ**

SHahrisabz filiali

SHaxrisabz tuman Ipak yo'li kuchai-181 uy

INN: 200672124 MFO: 00432

OKONX: 80190

H/r: 20210000100530160001

SKB: Toshkent sh. Yashnobod filiali

Direktor:

*SHAHRISABZ*

*FILIALI*



*Leysenayev A.S. 05.05.2021*

**“ISTE’MOLCHI”**

**TKT1 Shahrisabz filiali**

**Shahrisabz sh. Namuton Mfy 20uy**

**Inn: 306592526 Mfo: 00014**

**x/r: 400910860104057094100079002**

**Moliya vazirligi Guznachiligi**

**X/AS-SH-2021-05-18-0100001010**

**Ustolov SH. R.**

